INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS ..... 744
**Mamatkulova Shoira Jalolovna**

RAQAMLI TURIZM INFRATUZILMASINI BAHOLASHDA INTEGRATSION INDIKATORLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH ..... 750
**Raximov Abror Zafarovich**

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF DEVELOPING PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN ..... 754
**Rajapova Gulnoza Maxmudovna**

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА ..... 759
**Ахмедова Газиза Азим кизи**

THE IMPORTANCE OF DIGITALIZATION METHODS AND SUSTAINABILITY IN PROVIDING PRODUCTS AND SERVICES TO CUSTOMERS ..... 763
**Umarova Nargiza Mirakabarovna**

NOMINAL ALMASHUV KURSI QADRSIZLANISHINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA ILMIY-TAHLILIY YONDASHUV ..... 768
**Toyirov Yunus Alamovich, Nazarov Qilich Xolmuradovich**

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ ..... 773
**Жураева Нодирахон Фузулий кизи**

MILLIY INNOVATSION TIZIMDA FAN TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH O‘ZARO UYG‘UNLIGI ..... 779
**Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich**

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI VA ULARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA’SIRI ..... 782
**To‘raboyeva Kimiyoxon O‘rozbekovna, Asadov Baxshullo Xasanboy o‘g‘li**

DAVLAT QARZI VA UNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI ..... 786
**Alimov Muhammad Yunus Muhammad ali o‘g‘li**

RAQAMLI BOSHQARUV VA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR ORQALI MINTAQAVIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ..... 791
**Dilmurodov Zuhriddin Do‘stmurod o‘g‘li**

MAHALLA INSTITUTIDA KICHIK BIZNES VA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI ..... 795
**Dawletmuratov Adilbay Mirzabaevich**

MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TASHQI SAVDO OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH ASOSLARI ..... 801
**Masharipova Manzura Alimbayevna**

# MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TASHQI SAVDO OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH ASOSLARI

**Masharipova Manzura Alimbayevna**
“Ma’mun universiteti” NTM, Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti.
E-mail: manzuraalimbaevna@gmail.com
ORCID: 0009-0002-2108-5237

Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida mintaqaviy tashqi savdo operatsiyalari samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida tashqi savdoning raqamli segmentini baholash yondashuvlari, elektron savdo platformalari hamda blokcheyn texnologiyalarining eksport salohiyatini yuksaltirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli savdo tushunchasining mazmuni va uning tarkibiy qismlari klassifikatsiya qilingan. Maqola yakunida mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda raqamli ekotizimlardan foydalanish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa iqtisodiyoti, tashqi savdo, raqamli transformatsiya, eksport salohiyati, elektron tijorat, raqamli logistika, tranzaksiya xarajatlari, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This article examines the issues of increasing the efficiency of regional foreign trade operations in the context of the digital transformation of the global economy. During the study, approaches to assessing the digital segment of foreign trade, as well as the role of electronic trading platforms and blockchain technologies in enhancing export potential, were analyzed. In addition, the content of the concept of digital trade and its main components were classified. At the end of the article, scientific proposals and recommendations were developed regarding the use of digital ecosystems to ensure regional economic stability.

Key words: regional economy, foreign trade, digital transformation, export potential, e-commerce, digital logistics, transaction costs, economic stability.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности региональных внешнеторговых операций в условиях цифровой трансформации глобальной экономики. В ходе исследования были проанализированы подходы к оценке цифрового сегмента внешней торговли, а также роль электронных торговых платформ и технологий блокчейн в повышении экспортного потенциала. Кроме того, была проведена классификация содержания концепции цифровой торговли и её основных компонентов. В заключительной части статьи разработаны научные предложения и рекомендации по использованию цифровых экосистем для обеспечения региональной экономической стабильности.

Ключевые слова: региональная экономика, внешняя торговля, цифровая трансформация, экспортный потенциал, электронная коммерция, цифровая логистика, транзакционные издержки, экономическая стабильность.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biri tashqi savdo aloqalarini samarali rivojlantirish hisoblanadi. Mintaqalarning eksport salohiyatini yuksaltirish, import tarkibini optimallashtirish hamda xalqaro mehnat taqsimotida munosib o‘rin egallashi hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi [1].

So‘nggi yillarda xalqaro savdo tizimida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda logistika zanjirlarining modernizatsiyalashuvi mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, zamonaviy raqamli platformalar

va elektron tijorat tizimlari mintaqalararo savdo aloqalarini kengaytirish hamda iqtisodiy integratsiyani jadallashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar doirasida hududlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini liberallashtirish, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada hududlarning eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay institutsional muhit shakllanmoqda [2].

Mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirishda an’anaviy savdo mexanizmlari bilan bir qatorda “yashil” iqtisodiyot prinsiplari, elektron tijorat platformalari, raqamli logistika tizimlari hamda klasterli yondashuv kabi zamonaviy usullardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tashqi savdo aloqalarini boshqarishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirishni, raqamli ekotizimlarni rivojlantirishni hamda hududlarning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi ishtirokini kuchaytirishni taqozo etadi. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi savdoning o‘rni va uni takomillashtirish masalalari fundamental iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlariga ko‘ra, tashqi savdo va mintaqaviy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik “Yangi iqtisodiy geografiya” nazariyasi doirasida keng tadqiq etilgan. Xususan, P. Krugman va A. Venables kabi olimlar mintaqalarning tashqi savdo aloqalari ularning sanoatlashuvi va iqtisodiy markazlarga aylanishida muhim rol o‘ynashini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [3].

Shuningdek, R. Baldwin tadqiqotlarida “global qiymat zanjirlari” tushunchasi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Olimning fikricha, mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun nafaqat tayyor mahsulot eksporti, balki xalqaro ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan bosqichlariga integratsiyalashuv ham katta ahamiyat kasb etadi [4].

J. Lin va uning hammualliflari “Yangi tarkibiy iqtisodiyot” nazariyasi asosida mintaqalar o‘zlarining qiyosiy ustunliklaridan samarali foydalanib, tashqi savdo strategiyalarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borishlari zarurligini ta’kidlaydilar [5].

Raqamli transformatsiya sharoitida S. Goldfarb va C. Tucker tadqiqotlarida tashqi savdo aloqalarida tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi hamda “chegarasiz savdo” modeli orqali mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning jadallashuvi zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholanadi [6].

Mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida mintaqaviy tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, N. Sirajiddinov tadqiqotlarida O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayonida hududiy eksport salohiyatini oshirish va savdoni liberallashtirishning iqtisodiy samaralari atroflicha tahlil qilingan [7].

Iqtisodchi olim Sh. Mustafakulov mintaqalarning investitsion jozibadorligi va tashqi iqtisodiy faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda tashqi savdo aloqalarining institutsional asoslarini rivojlantirish muhimligini ilmiy jihatdan asoslaydi [8].

Shuningdek, A. Vahobov va hammualliflarning ilmiy ishlarida mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish hamda tashqi savdo tarkibini modernizatsiya qilish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida baholanadi [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy globallashuv sharoitida “yashil logistika”, raqamli ekotizimlar hamda elektron savdo platformalari asosida mintaqaviy tashqi savdoni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiyot va xalqaro savdo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish maqsadida tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanildi. Raqamli transformatsiyaning tashqi savdo ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholashda abstrakt-mantiqiy mushohada, statistik guruhlash va tahliliy umumlashtirish metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) statistik materiallari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Export.uz” portali ma’lumotlaridan foydalanildi. Mazkur manbalar tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash bilan bir qatorda, raqamli savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini kompleks baholash imkonini berdi.

Shuningdek, raqamli savdo terminologiyasini aniqlashtirish va ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirishda induksiya va deduksiya usullari asosida mavjud nazariy qarashlar sintez qilindi. Tadqiqot jarayonida elektron

platformalar, raqamli logistika tizimlari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tashqi savdo samaradorligini oshirishdagi o‘rni alohida e’tibor markazida bo‘ldi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqalarda tashqi savdoning raqamli transformatsiyasi zamonaviy global iqtisodiyotning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Natijada tashqi iqtisodiy faoliyatning an’anaviy modellari bosqichma-bosqich raqamli va elektron mexanizmlar bilan boyitilib, xalqaro savdo aloqalarining samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Internet tarmog‘ining global miqyosda kengayishi, ma’lumotlar oqimining ortishi hamda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida yangi imkoniyatlarni shakllantirmoqda [10].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar tashqi savdo jarayonlarini tezlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish hamda savdo operatsiyalarining shaffofligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Elektron savdo platformalari, blokcheyn texnologiyalari va raqamli logistika tizimlari eksport-import operatsiyalarini soddalashtirib, mintaqalarning global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy globallashuvning yangi bosqichida raqamli savdo an’anaviy savdo tizimlarini yanada takomillashtiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi omilga aylanmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari global savdo dinamikasining tiklanishiga, yangi bozor segmentlarining shakllanishiga hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jadallashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda [11].

Shu bilan birga, raqamli savdoning rivojlanish bosqichlari turli mamlakatlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi kuzatilmoqda. Ayrim davlatlar innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etish orqali global raqamli savdoda yetakchi mavqega erishayotgan bo‘lsa, boshqa mamlakatlar ham ushbu yo‘nalishda o‘z salohiyatini bosqichma-bosqich oshirib bormoqda. Bu esa xalqaro iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Global savdoning raqamli segmentini kompleks tahlil qilish mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Xususan, elektron platformalar va raqamli ekotizimlar orqali tashqi savdo aloqalarining rivojlanishi xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirmoqda [12].

Bugungi kunda nafaqat global raqamli savdo tizimining faol ishtirokchisiga aylanish, balki uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini shakllantirishda ham faol qatnashish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, yangi iqtisodiy qonuniyatlarni, innovatsion tendensiyalarni hamda raqamli transformatsiya sur’atlarini chuqur tahlil qilish mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Demak, raqamli savdoni ikki asosiy yo‘nalishda talqin qilish mumkin. Birinchidan, u raqamli tovar va xizmatlar savdosi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan esa, an’anaviy tovarlar savdosining zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilish shakli sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvlar raqamli savdoning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda mintaqalarning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi o‘rnini mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Mintaqa iqtisodiyotining raqamli segmentida xalqaro savdo terminologiyasi [13]

| Atama | Atama ta’rifi |
|---|---|
| **Raqamli iqtisodiyot** | Bilimlar va raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi iqtisodiy paradigma bo‘lib, uning doirasida jamiyat, biznes va davlat uchun yangi raqamli ko‘nikmalar hamda imkoniyatlar shakllanadi. Raqamli ma’lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib, axborot makonining rivojlanishiga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar uchun yangi texnologik poydevor yaratilishiga xizmat qiladi. |
| **Raqamli (global) savdo** | Internet va elektron tijorat orqali tovar hamda xizmatlarni realizatsiya qilish bilan bir qatorda, elektron bank xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan o‘zaro iqtisodiy aloqalarni ham qamrab oluvchi savdo shaklidir. Ushbu tizim turli biznes modellari asosida shakllanib, zamonaviy savdo ekotizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. |
| **Tashqi savdoning raqamli segmenti** | Raqamli savdoning nisbatan tor yo‘nalishi bo‘lib, asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) uskunalari hamda AKT xizmatlarining xalqaro savdosini o‘z ichiga oladi. |

Demak, xalqaro savdoning raqamli transformatsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning eng istiqbolli va innovatsion yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon keng ko‘lamli texnologik yechimlarni qamrab olib, tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish, logistika tizimlarini takomillashtirish hamda mintaqalarning global bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada mintaqalar amaliyoti uchun ayniqsa muhim bo‘lgan uchta asosiy vosita — elektron savdo platformalari, logistika sohasidagi blokcheyn texnologiyalari va mahsulotlarni kuzatish tizimlari alohida tahlil qilinadi.

Elektron savdo platformalari tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdoni raqamli transformatsiya qilishning institutsional asosi sifatida “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi hamda milliy eksport portali samarali faoliyat yuritmoqda. Ushbu raqamli ekotizim eksport operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilib, barcha zarur jarayonlarni yagona platforma doirasida integratsiyalash imkonini yaratmoqda.

Umuman olganda, bunday raqamli platformalar axborot assimetriyasi bilan bog‘liq institutsional to‘siqlarni kamaytirish, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va tashqi savdo jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi [14]. Natijada eksport-import operatsiyalarining tezkorligi, shaffofligi va ishonchliligi ortib, tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhiti shakllanmoqda.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyalari tashqi savdo tizimini modernizatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Tarqatilgan reyestr texnologiyalaridan foydalanish mahsulotlarning kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash bilan bir qatorda, logistika jarayonlari va yetkazib berish zanjirlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa savdo operatsiyalarining xavfsizligi va shaffofligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama qilinayotgan texnologiyalarning yuqori salohiyatiga qaramay, ularni O‘zbekiston tashqi savdo amaliyotiga keng joriy etish bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot va tashqi savdo xizmatlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik bazasini zamonaviy texnologiyalar rivojlanish sur’atlariga mos ravishda takomillashtirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyalari va raqamli aqlli kontraktlarning huquqiy asoslarini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish tashqi savdo tizimining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, milliy raqamli platformalarning xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiyasini kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tashqi savdo oqimlari yo‘naltirilayotgan davlatlar bilan ma’lumot almashinuvi standartlarini uyg‘unlashtirish savdo operatsiyalarining tezkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa “Yagona darcha” tizimining xorijiy bojxona axborot tizimlari bilan real vaqt rejimida integratsiyalashuv imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat va zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida kompleks bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Inson kapitalining rivojlanishi murakkab raqamli yechimlarni nafaqat yirik eksportchi korxonalarda, balki kichik va o‘rta biznes subyektlarida ham keng joriy etish imkonini yaratadi [15].

Umuman olganda, raqamli transformatsiya tashqi savdo tizimini rivojlantirishning sifat jihatdan yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston sharoitida raqamli ekotizimlarni rivojlantirish, qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga moslashtirish, malakali kadrlar salohiyatini oshirish hamda blokcheyn kabi “ishonch texnologiyalari”ni amaliyotga keng tatbiq etish strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlar respublikaning an’anaviy eksport bozorlaridagi mavqeini mustahkamlash bilan birga, yangi yuqori texnologiyali va masofaviy bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa sifatida qayd etish mumkinki, xalqaro savdoning raqamli transformatsiyasi zamonaviy axborot jamiyati rivojlanishining eng muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi savdo operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish nafaqat texnologik modernizatsiya jarayoni, balki hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli ekotizimlarning joriy etilishi savdo hajmlarining oshishi, eksport-import operatsiyalarining tezkorligi va shaffofligining kuchayishi hamda xalqaro hamkorlar o‘rtasidagi ishonch darajasining yuksalishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston sharoitida raqamli platformalarning rivojlanishi ma’muriy xarajatlarni qisqartirish, ayniqsa, hududlardagi eksportyor korxonalarning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatda raqamli infratuzilmaning izchil rivojlanib borayotgani, elektron xizmatlarning kengayishi hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ko‘lamining ortishi tashqi savdo samaradorligini yanada oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bu esa mintaqalarning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi faolligini kuchaytirish va yangi yuqori texnologiyali bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mintaqaviy tashqi savdo samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

Raqamli tashqi savdo xizmatlarini tartibga soluvchi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, xususan, raqamli aqlli kontraktlarning (smart contracts) huquqiy maqomini aniq belgilash tashqi savdo tizimining zamonaviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish.

Mintaqalardagi eksportyor korxonalar faoliyatida blokcheyn texnologiyalariga asoslangan mahsulotlarni kuzatish tizimlarini joriy etish hamda ularni xalqaro logistika tarmoqlari bilan integratsiyalash savdo operatsiyalarining ishonchliligi va samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, inson kapitalini rivojlantirish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va zamonaviy IT-texnologiyalar sohasida kompleks bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish raqamli yechimlarning kichik va o‘rta biznes subyektlari o‘rtasida keng ommalashuviga imkon yaratadi.

To‘rtinchidan, ekologik va raqamli integratsiyani kuchaytirish.

Tashqi savdo operatsiyalarini boshqarishda “yashil logistika” tamoyillari hamda raqamli ekotizimlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi respublika mintaqalarining tashqi iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash, eksport geografiyasini kengaytirish hamda zamonaviy yuqori texnologiyali bozorlarda raqobatbardosh mavqeni shakllantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Smith J. *Regional Economic Integration and Global Trade*. – Academic Press, 2022. – P. 45–50.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyas. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
3. World Bank. *World Development Report 2024: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. – Washington, DC, 2024.
4. Krugman P., Venables A. J. Globalization and the Inequality of Nations // *The Quarterly Journal of Economics*. – 1995. – Vol. 110. – № 4. – P. 857–880.
5. Baldwin R. *The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization*. – Harvard University Press, 2016.
6. Lin J. Y. *New Structural Economics: A Framework for Rethinking Development and Policy*. – World Bank Publications, 2012.
7. Goldfarb A., Tucker C. Digital Economics // *Journal of Economic Literature*. – 2019. – Vol. 57. – № 1. – P. 3–43.
8. Sirajiddinov N. *O‘zbekistonning tashqi savdo siyosati va uning samaradorligi*. – Toshkent: JIDU ilmiy to‘plami, 2020.
9. Mustafakulov Sh. V. *Investitsion muhit jozibadorligi*. Ilmiy monografiya. – Toshkent: “Badiiy akademiya”, 2017.
10. Vahobov A. V., Jumaev N. X. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. Darslik. – Toshkent, 2021.
11. Meltzer J. P. *Digital Trade: Documenting Its Importance, Its Benefits, and Challenges*. – Washington, D.C.: Brookings Institution, 2019. – P. 15–32.
12. Strelets I. A., Chebanov S. V. Digital Trade as a Driver for Resetting Global Trade Dynamics // *World Economy and International Relations*. – 2020. – Vol. 64. – № 7. – P. 14–23.
13. Смирнов Е. Н. Цифровая трансформация мировой торговли: особенности, тренды и барьеры // *Управленец*. – 2019. – Т. 10. – № 4. – С. 42–51.
14. Шкваря Л. В., Фролова Е. Д. Компаративный анализ развития внешней торговли в цифровом сегменте по регионам мира // *Экономика региона*. – 2022. – Т. 18. – Вып. 2. – С. 482–495.
15. Смирнов Е. Н. *Глобальный вектор цифровизации международной торговли: специфика неравномерности участия стран*. – Москва: Проспект, 2019. – С. 112–128.
16. Машарипова Х. М. Минтақа рақобатбардошлигининг илмий-назарий жиҳатлари ва ўзига хос хусусиятлари // *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. – 2024. – Т. 4. – № 08. – Б. 30–38.

# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz